

Rayxon RASULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti o'qituvchisi

O'QUVCHI TAFAKKURINI O'STIRISHDA BADIY ASARLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktab o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda badiiy asarlar-ning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, matn bilan ishlash, kommunikativ kompetensiya, davr, muhit, ijod, vatan ravnaqi, yoshlar dunyogarashi, matn yaratish.

O'quvchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari bilan tarbiyalash, eng avvalo, adabiyot fanini o'qitish bilan chambarchas bog'liq. Yosh avlodni kamol toptirishda ham adabiyot fani o'qituvchisining o'rni naqadar ulkan. Adiblarimiz ijodi misolida o'quvchilarning insoniylik tuyg'usini shakllantirish, ma'naviy kamolini yuksaltirish masalalari o'ta muhim. Avlod tarbiyasida dolzarb mavzularni ko'tarib chiqqan asarlar bilan ishlashni to'g'ri yo'lga qo'yish har bir pedagogning oliy burchidir.

Bunday muazzam asarlarni o'rganish, tadqiq va talqin etish bugungi pedagogikamizning ham ustuvor masalalardan biridir. Ajdodlarimiz merosini o'qib-o'rganish va yosh avlodni ham bahramand qilish muhim vazifalardandir. Mamnuniyat bilan aytish kerakki, ko'pgina adiblarimiz ijodini bor bo'y-basti bilan, xolislik va ilmiylik mezonlariga mos holatda o'rganish va o'rgatish imkoniyati istiqbol sharofati bilan kengaydi. Xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni ajdodlarimizning bebaho merosidan bahramand etsak, madaniy yuksalishimizda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishimizda shunchalik kuchli ma'naviy qurolga ega bo'lamiz. Shuning uchun ham bu asarlarni o'qib-o'rganish, ilgari surgan yuksak gumanistik g'oyalarni tushunib yetish mamlakatimizning har bir fuqarosi uchun g'oyatda muhimdir.

Asarlarni interfaol metodlar asosida o'rgatish orqali zamonaviy yondashuvlarni tahlil etish, o'qitishning didaktik ta'minotini takomillashtirishga harakat qilinmog'i zarur. Yoshlarimizni kamol toptirishda kuchli ma'naviy manbalarimizga ega ekanligimizni har tomonlama yaqqol namoyish etish vaqti yetib keldi. Shuning uchun ham badiiy asarlarni o'qib-o'rganish, ilgari surilgan yuksak gumanistik g'oyalarning mohiyatini tushunib yetish mamlakatimizning har bir fuqarosi uchun g'oyatda muhimdir.

Ta'limda asosiy vazifalardan biri o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini oshirish, o'qish savodxonliklarini o'stirishdir. Maktab ta'limining barcha bo'g'inlarida, quyi sinflardan boshlab yuqori sinflargacha, barcha sinflar kesimida bunday ishlarni yo'lga qo'yish zamonaviy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan talabdir. Buning uchun o'quvchilarni ko'proq kitob o'qishga, ada-

biyotga murojaat etishga o'rgatish zarur. Insoniyatning ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ilmiy manbalarni avlodlarga meros qilib qoldirish hamda ajdodlar ma'naviy manbalarini tadqiq etib, jamiyat rivojiga hissa qo'shishni o'quvchilar ongiga singdirib borish zarur. Avvalo, yozma manbalarni o'rganish va bu manbalarni matn bilan ishlash jarayonlari orqali takomillashtirish mumkin. Demak, asosiy imkoniyatlardan biri matn bilan ishlashga o'quvchilar qiziqishlarini oshirishdir. Til – imkoniyatlar manbayi, matn esa natijalar mevasidir, chunki matn egallagan bilim, ko'nikma, malakalar hosilasidir. Mustaqil yaratilgan matn o'quvchi tafakkur qobiliyati aks etishi, tugal mantiqli, falsafiy xulosaning kashf etilishi, yuzaga chiqishidir. Aynan mana shu kashfiyot shaxsni rivojlantirish kompetensiyasining bosh manbayidir. Bu yutuqqa erishishni matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishdan boshlasa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bilim o'zlashtirish qobiliyati ijodkorlikni, yaratuvchanlikni yuzaga keltiradi. Mantiqiy fikrlashning xato qilmaslik talabi, o'quvchini izlanishga, kashf qilishga yo'naltiradi, shaxs sifatida o'zligini anglash, o'z bilim va iqtidorini o'zgalarga namoyish qilish istagini paydo qiladi. O'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uni yozma va og'zaki fikr ifodalash, fikrini asoslab berish, mustaqil matn yaratishga o'rgatish, o'qish savodxonligini oshirishdan iborat. Matn yaratishda muvaffaqiyatga erishish o'qituvchining metodlarni mukammal bilishi, metodni to'g'ri saralab tanlay olishi va ularni o'z o'rnida qo'llay olish mahoratiga bog'liq. O'quvchi faoliyati o'z-o'zidan faollashmaydi, balki o'qituvchi tomonidan ilg'or innovatsion texnologiyalardan foydalanish yaxshi natijalar beradi. O'quvchi egallashi lozim bo'lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga mos keladigan malaka va ko'nikmalar tizimi to'g'ri tanlansagina har tomonlama yetuk kompetentligi bilan namuna bo'la oladigan shaxsni tarbiyalash mumkin. O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarning o'rinni qo'llanilishi o'quvchilarni mustaqil, erkin, mantiqli fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni his etishga o'rgatadi. Muammolarni o'z zimmasiga ola bilish, tahlil qilish, qo'shimcha vositalardan unum-

li foydalanish, eng asosiysi, o'qishga, fanga, o'zi tanlagan kasbiga nisbatan mehrini kuchaytiradi, ta'limda samarali natijalarga erishiladi. Matn yaratish jarayonida qo'llaniladigan metodlarda doimiy takrorlanib kelgan an'anaviy usullarga nisbatan yangicha yondashuvlar asosida tashkillashtirish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar uchun qiziqarli, maroqli usullarni qo'llash doimo samarali kechgan, yosh xususiyatlarini

hisobga olgan holda yaratiladigan matnlarda maqol va matallardan, yuqori sinflarda esa lirik matnlarda she'riy san'atlardan foydalanish jarayonning rang-barangligini ta'minlaydi hamda ko'zlangan natijani beradi. Tarixiy-an'anaviy, ma'naviy meroslarimiz shakllarini uzmasdan takomillashtirib borish ta'limda yangi axborot manbalari oqimlarining hamda axborot texnologiyalarining bo'ronli rivojlanishida ijobiy natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rayhon Rasulova. "Ona tili fanini o'qitishda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning nutq madaniyatlarini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish". Ta'lim, fan va innovatsiya, 2020. №2. 37–40-betlar.
2. Rasulova R. B. (2021). Adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodini o'qitishning samarali uslublari va yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirish. SCIENCE and Education SCIENTIFIK Journal // **PUBLISHED IN VOLUME #1. SPECIAL ISSUE #3 ISSN 2181-0842 -P. 174-181 November, 2020.**
3. Rasulova R.B. Umumta'lim maktab o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda reminissensiya hodisasining ahamiyati (7–9-sinflarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish metodikasi) Mug'allim ham uzluksiz bilimlendirio'. Ilmiy-metodikaliq j. I № 6/1 2021. B. 8-12

Dildora AXATOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

IBN SINO JISM, RUH VA AQL MUTANOSIBLIGINING AHAMIYATI VA TADQIQI

Annotatsiya: Ma'lumki komil inson tushunchasi juda qadimgi tarixga ega. Ulug' faylasuflarimiz, shayxlarimiz bu borada ajoyib fikrlarni bildirganlar. Umuman insonning axloqiy tarbiyasi ajdodlarimizning doimiy diqqat markazida turgan. Maqolada ham ulug' tabib ajdodimiz Ibn Sino qarashlarida jism, ruh va aql mutanosibligi xususidagi fikr va mulohazalar tadqiq qilingan va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: jism, ta'lim, ruh, aql, ma'naviyat, ma'rifat, inson, ishq, hirs, komillik.

Abstract: It is known that the concept of a perfect person has a very old history. Our great philosophers and sheikhs have expressed excellent opinions in this regard. In general, the moral education of a person was in the constant focus of our ancestors. In the article, the views and opinions of our great physician ancestor Ibn Sina on the balance of body, soul and mind were researched and suggestions were made.

Key words: body, education, soul, mind, spirituality, enlightenment, human, love, lust, perfection.

Аннотация: Известно, что понятие идеального человека имеет очень давнюю историю. Наши великие философы и шейхи высказали превосходные мнения по этому поводу. Вообще нравственное воспитание человека находилось в постоянном центре внимания наших предков. В статье были исследованы взгляды и мнения нашего великого предка-медика Ибн Сины о балансе тела, души и разума и сделаны предложения.

Ключевые слова: тело, образование, душа, разум, духовность, просветление, человек, любовь, похоть, совершенство.

Butun ma'naviyat tarixi shuni ko'rsatadiki, sivilizatsiya degani – insonning o'z-o'zini anglash, o'zini kamol toptirish uchun olib borgan kurashining hosilasidir. Barcha dinlar, ta'limotlar, tafakkur daholari inson qobiliyati, ruhiyati va axloqni o'rganish, insonni tarbiyalab, to'g'ri yo'lga boshlash, noqislik va illatlardan xalos etish bilan shug'ullanib keldilar.

Ibn Sinoning ma'naviy merosidagi qator muammolar tizimida komil inson masalalari e'tiborli salohiyatga ega-dir. Uning "Burch haqida risola", "Axloq haqida risola", "Insof haqida risola", "Ishq haqida risola", "Nafs haqida risola", "Nurlanish" kabi asarlarida va adabiy-badiiy qis-salarida bu masalaga oid muhim qirralar bayon etilgan.